

## ZULFIYA- MILLAT RUHINING MA'NAVIY OVOZI

**Shodmonqulova Diyora Bobur qizi**  
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Zulfiya ijodining o'zbek milliy ma'naviyatidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Zulfiya she'rlari xalqning ichki kechinmalari, dardlari va umidlarini badiiy mahorat bilan ifodalab, millatning ruhiy olamini aks ettiruvchi asarlar sifatida taqdim etiladi. Maqolada shoiraning Vatan sevgisi, ayollarga bo'lgan chuqur hurmati va insoniy qadriyatlarni ulug'lovchi she'rlari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, Zulfiya ijodining zamonaviy yoshlar tarbiyasi va milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shoiraning ijodi xalqning ma'naviy ovozi va millat qadriyatlarining abadiy timsoli sifatida baholangan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, betakror, ruhiy olam, qadriyatlar, kechinma, satr.



O'zbek xalqining ma'naviy boyligi va milliy qadriyatlarini asrashda adabiyot muhim o'rin tutadi. Bu borada Zulfiyaning ijodi alohida ahamiyatga ega.



U faqat shoira emas, balki millatning qalbini, dardini va umidini ifodalagan buyuk siymo sifatida e'tirof etiladi. Uning she'rlari orqali xalq o'zining ichki kechinmalari va orzu-umidlarini topdi, millat esa o'z ma'naviy ovozi eshitdi.

Zulfiya she'riyati – bu so'z san'atining betakror durdonasi, unda xalqning ruhiy olami va ma'naviy qadriyatlari butun bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi.

Zulfiya nafaqat xalq shoirasi, balki millatning ma'naviy elchisi edi. U xalqning qadriyatlarini, uning ichki olamini va go'zalligini dunyoga tanitdi. Uning she'rlari xalqning ruhiyatini, ma'naviyatini va madaniyatini o'zida aks ettiradi.

Shoiraning ijodi bugungi kunda ham yoshlar orasida ma'naviy uyg'onishning kuchli manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shoiraning ijodi xalq dardini, uning ruhiy kechinmalarini ifodalashda beqiyosdir. Ikkinchi jahon urushi yillarida yozilgan she'rlarida Zulfiya xalqning fojearini, urush yillaridagi achchiq haqiqatlarni tasvirlab bergan.

"O'g'lim sira bo'lmaydi urush" she'rida urushning insoniy hayotga olib kelgan og'ir zarbalari aks etadi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi talaba-yoshlari bilan Zulfiyaxonim yodgorlik haykali oldida ma'naviy ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, sevimli shoiraning hayoti va ijodini o'rganish va keng targ'ib qilish ishlari boshlab yuborildi va hozirgacha qisqa vaqt mobaynida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Zulfiya nomidagi ijod xonasi tashkil etildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasining kutubxonasida shoira ijodiga mansub asarlar burchagi tashkil etilib, unda shoira Zulfiyaning barcha ijod namunalari jamlandi. Shuningdek, TTA rasmiy veb saytida "Zulfiyaxonim ijodini o'rganamiz" saxifasi tashkil etildi.

Hozirda 2225 tadan ziyod talabalar a'zo bo'lgan "Keling, Vatanimizga qanot bo'laylik", "TTAning ijodkor talabalari" telegram guruhlarida Zulfiyaxonimning hayot va ijod yo'llariga bag'ishlab erkin yo'nalishlarda (audiroluk, videorolik, taqdimot, she'r, insho, qo'shiq, kuy, rassomchilik mahorati) ijodiy ishlar tanlovlari e'lon qilindi.

Tanlov tashkilotchilariga bugunga qadar talabalar tomonidan Zulfiya qalamiga mansub she'rlar asosida tayyorlangan audiosherlar, talabalarning o'z badiiy va tasviriy ijod namunalari, Zulfiya asarlari bo'yicha talabalar tomonidan ijro etilgan kuy, qo'shiqlar taqdim etilmoqda.





Toshkent tibbiyot akademiyasida iqtidorli, tashabbuskor, izlanuvchan Zulfiyaxonimga monand izdoshlarni munosib rag'batlantirish maqsadida "Zulfiyaxonim" nomidagi maxsus stipendiya va ko'krak nishoni ta'sis etilgan.

O'zbek adabiyotida Zulfiya singari buyuk shoiralarimiz borligi men uchun katta g'ururdir. Shu sababli, men o'z she'rlarim orqali nafaqat o'z tuyg'ularimni ifodalashga, balki Zulfiya izidan borib, uning merosini davom ettirishga harakat qilaman.





Zulfiya she'riyati insoniylik, mehr-muhabbat, Vatan sevgisi va kuchli ayol obrazlari yoshlarning qalbida yangi his-tuyg'ularni uyg'otadi, ularni yaxshi inson bo'lishga chorlaydi. Zulfiya she'riyatidan ilhom olib, jamiyatda o'z o'rnini topishi va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashi lozim. Shu sababdan, Zulfiya ijodini o'rganish va targ'ib qilish har birimizning burchimizdir.

Har safar Zulfiya haykali yoniga tashrif buyurganimda, hayotga, ijodga bo'lgan sevgim kuchayadi.

Men shoironing she'rlari orqali inson ruhining cheksiz imkoniyatlarini kashf qilaman va bu merosni o'z she'rlarimda davom ettirishga intilaman. Haykal menga shoironing hayotiy matonatini, mehnatini va inson qalbining eng nozik tuyg'ularini yodga soladi.

Bu joy mening ijodiy dunyoqarashimni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultonova M., "Ijod sahifalari", Toshkent, 1975; "Zulfiya" [bibliografiya], Toshkent, 1977; Sultonova M., Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she'riyat ijodkori,





Toshkent, 1986; Ehtirom [nashrga tayyorlovchilar: Rahima Shomansurova, Ra'no Rahmonova], Toshkent, 1995.

2. Qayumov L. "Shoira Zulfiya". Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.

3. Mirvaliev S. "O'zbek adiblari". Toshkent: Yozuvchi, 2000. 5. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985)

4. Zulfiya ., "Bahor keldi seni so'roqlab" «Yangi asr avlodi» nashriyoti Toshkent 2016

